

HAYOTNING MA'NOSINI ANGLASHDA ARISTOTEL KAUZAL TAHLILINING AHAMIYATI

Axmedov Shaxrux Akbar o'g'li

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
Ijtimoiy fanlar fakulteti Falsafa yo'nalishi III bosqich talabasi*

X.Toshev

Ilmiy rahbar: falsafa doktori (PhD) dotsent

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Aristotel kauzal tahlilining G'arb va Sharq faylasuf olimlarining falsafiy qarashlariga transformatsiyasi masalasi ko'rib chiqiladi. Aristotel "Borliq nima?" degan savolni o'rtaga qo'ygan, tafakkur va borliqning bir xilligi g'oyasini ilgari surgan. Aristotelning fikricha, "borliq kategorial so'zlash shakllari orqali ifodalanuvchi barcha narsalarga o'z-o'zidan bog'lanadi. Zero, bunday so'zlash usullari qancha bo'lsa, borliq ham shuncha manoda ifodalanadi. Ayrim iboralar narsaning mohiyatini, ayrimlari - sifatini, ayrimlari miqdorini, ayrimlari – nisbatini, ayrimlari – harakati yoki o'zgarishini, ayrimlari – "qayerda"ligini, ayrimlari – "qachon"ligini anglatgani sababli, borliq ularning har biriga mos manolarga ega bo'ladi".*

Kalit so'zlar: *Sof, noosfera, shakl-sabab, quvvat, ta'limot, falsafa, tahlil, tasavvuf, muhabbat, XAOS, metafizika, ontologiya, olam, jon, nazariya, mohiyat, substansiya.*

Metafizikada, xususan, tasavvuf ontologiyasida Olam qanday paydo bo'lgani yoritilganida faqat latif javharnigina emas, balki qattiq javharning (substansiyaning) nima ekani va ular orasidagi murakkab munosabatlar ham tushuntirilgan. Buni tushunish va biz muhokama etayotgan masalada foydalanish uchun biz Aristotel ontologiyasidan, xususan, uning borliq asosida yotgan to'rt sababga bag'ishlangan "kauzal tahlil"idan foydalanamiz. Ushbu tahlilga ko'ra olamning paydo bo'lishi to'rt sababning baravar amal qilishi tufayli sodir bo'gan. Bular shakl-sabab, materiya-sabab, harakat-sabab va maqsad-sabablardir.

Biz avvalo shakl-sababga to'xtalamiz. Ushbu sababni tushunish uchun eng oldin Aristotel "shakl" deganida Platon "g'oya" deb atagan tushunchaning ma'nosini anglashimiz kerakligini ta'kidlab o'tishimiz joiz. Chunki, markscha falsafada "shakl" deyilganida narsalarning faqat moddiy munosabatlari nazarda tutilgan edi. Vaholanki, bu chalkashlikni yo'qotmasdan turib, asl metafizik ontologiyaning materiyaga munosabatini tushunish mumkin emas.

Agar biz shaklning Platon talqinidagi ma'nosini tiklasak, u holda Aristotelning shakl-sabab haqidagi qarashi Platonning bu moddiy dunyodagi barcha narsalar vujudga kelishidan oldin ularning ruhiyat olamida mavjud bo'lgan g'oyaviy obrazlari, aniqrog'i, proobrazlari, paradigmalari, (mohiyatlari, arxetiplari, modellari) degan qarashining sababiy talqini deb tushunishimiz kerak. Endi shakl haqidagi bu tasavvurimizni yuqoridagi tahlilimizdan kelib chiqqan ruh va g'oyaning ongli ontologik quvvat ekani haqidagi xulosamiz bilan bog'lab qarasaq, u holda shakl-sabab borliqni ongli ravishda strukturlab keltirib chiqargan, ya'ni "Sof" (musaffo) mohiyatdan, "Hech nimadan", javhardan, Olamiy Jondan, Jabarutdan, "Yuq"dan borni paydo qilgan ongli quvvat (ong-quvvat) ekani kelib chiqadi. "... Chunki, - Nasafiy talqinida aytsak, - ruh amr olamidandir va hatto o'zi amrdir." [1] Shu ma'noda Aristotel va Platonlar nazarda tutgan shakl(g'oya)-sabab bizning talqinimizda borliqni ongli ravishda strukturlovchi, tashkillovchi ongli.

Materiya-sabab esa narsalarning g'oyalari uchun substrat bo'lib hizmat qilgan substansiyani (javharni, mohiyatni) ifoda etadi. Ya'ni, Aristotel ta'limotida olamning "nimadan" (qaysi qurilish materialidan) qurilganini (tashkillanganini) ifodalash uchun, boshqacha aytganda, olamdagi narsalarning mazmunini ifodalashga xizmat qiladi.

Bu tushunchada Aristotel olamning hali shakllanmagan, faqat shakllanish imkoniyati bor bo'lgan aspektini, majoziy ma'noda aytganda olamning "qurilish materiali" yoki "birinchi materiyasini" ifodalash uchun kiritgan. Aristotel talqinida bu materiya xali hech qanday konkret sifat va hossalarga (rang, tus, kattalik, hajm, ta'm, ko'rinish, ifor va h.k.)ga ega bo'lmagan, faqat keyinchalik bunday hodisalar kelib chiqishi uchun "xomashyo" vazifasini bajarishi mumkin bo'lgan sabab deb xarakterlagan.

Bu dastlabki materiya Demokrit ta'limotida "atom" (narsalarning bo'linmas asosi), Platonda "xora", Aristotelida "hyle" deb, Ibn Arabiy ta'limotida esa "nozik xavo" deb ataladi.

Hozirgi davr fizikasi bu "dastlabki materiya"ning strukturasi, uning eng nafis "bo'linmas" oxirgi zarrachasini izlash mobaynida 300dan ortiq turdagi benihoya mayda zarracha xillari kashf etilgani ma'lum. Eng oxiri kashf etilgan zarrachalarning esa, xuddi Aristotel aytganiday, deyarli hech qanday sifat, miqdor muayyanligi yo'q.

Aristotel shakl-sabab (aniqrog'i, shakllantiruvchi sabab, ruh, g'oya) bilan materiya-sabab orasidagi munosabatni yoritarkan, shaklni faol, tartiblashtiruvchi substansiya deb, dastlabki materiyani esa nafaol, betartiblikda mavjud bo'lgan (XAOS), tashkillanish materialini (xomashyoni) o'zida gavdalantirgan nafaol substansiya sifatida xarakterlaydi. Aynan

shaklning faolligi dastlabki materiyani strukturlab, unga tartiblanish imkonini beradi. Shu ma'noda Arisotel ta'limotida shakl substansiya(mohiyat, g'oya, ruh); materiya esa substrat (g'oyaning idishi) vazifasini bajaradi. Shuningdek, uning ta'limotida "shakl" faol asos sifatida birlamchi, mazmun (materiya) esa uning substrati (tashuvchi idishi) sifatida ikkilamchi hisoblanadi. Ilmiyroq tilda aytsak, shakl dastlabki materiyani strukturlovchi ongli dinamik quvvatdir.

Ayni paytda shakl, yuqorida aytilganidek, Platon, Aristotel, Forobiy va b. ontologiyasida oddiy quvvat emas, balki u g'oyaviy, ya'ni ongli quvvatdir. Aziziddin Nasafiy ham "ruh amr olamidandir va hatto o'zi amrdir" deyish bilan ayni shuni uqtirgan. Bu esa har qanday ruhning, avvalo Birinchi Sababning, qolaversa o'zidan oliyroq pog'onalaridagi ruhlarning "amri"ga bo'ysunishini, ikkinchi tomondan, uning o'zining ham o'zidan keyingi pog'onalaridagi ruhlarga "amr" etishini, ya'ni o'z amru irodasini ularga o'tkazishini, yaratish, ijod qilish imkoniyatiga egaligini bildiradi.

Shu munosabat bilan Forobiy ontologiyasining biz ko'rayotgan masala yuzasidan eng diqqatga sazovor joyini alohida ta'kidlash joiz. Uning aytishicha, "...har bir samoviy jism o'z suvrat-shakllari orqali aql qabul qiladiganlardan sanaladi, ya'ni (ular) bilfe'l aqllardir. Bu esa (ular) ma'lum bir borliqni biladi va ilk borliqni tushunadi degan so'zdir." [1] Agar Forobiy asaridagi "suvrat" atamasi Aristotel ta'limotidagi "shakl" kategoriyasi ekanini va shaklning o'zi esa Platon ta'limotidagi "g'oya" kategoriyasi ekanini eslasak, u holda yuqoridagi fikrlar bir qadar tushunarliroq bo'ladi. "Bilfe'l" aql tushunchasi esa, agar "fe'l" harakat, iroda amaliyoti ekanini hisobga olsak, uning bu fikri osmon jismlari o'z harakatini ongli amalga oshirishini yoki ongli tashkillashtirilganini va samoviy jismlar o'z aqliga, noosferasiga egaligini bildiradi.

Shuningdek, Forobiy "Har bir osmon jismlari o'z zoti e'tibori bilan o'zidan lazzatlanadi," [1] - degan fikrni ham ta'kidlagan. Bu esa yana bir bor Olamiy Jonning butun borliqqa o'zining barcha aspektlari bilan (Soflik, Haqlik, Lazzat(ishq)) singib kirgan ong-quvvat ekanini ifodalaydi.

Shu o'rinda Platonning Olamiy Jonning ikki funksiyasi borligini: biri harakat(yaratish) bo'lsa, ikkinchisi bilish ekanini ta'kidlaganini ham eslab o'tish ham joiz. Olam Joni, uning tushuntirishicha, o'zining ayniy (o'z o'ziga teng bo'lgan, o'zgarimas, demak, tub ruhiy, arxetipik) qismi bilan g'oyani, ikkinchi (o'zgaruvchan, o'ziga teng bo'lmagan, o'zgaruvchan) qismi bilan materiyani, uchinchi bilan shakllangan narsalarni, ya'ni birinchi ikkitasining aralashuvidan vujudga kelgan predmetlarni biladi va his etadi.

Hozirgi davr fani metafizikaning yuqoridagi g'oyalarini ham tasdiqlovchi ilmiy materiallarni o'rtaga tashlamoqda. Masalan, materiyaning eng kichik

zarrachalarini izlash mobaynida “maydonlar nazariyasi” shakllandi. Ushbu nazariya moddiy olamning asosida elektro-magnit, gravitatsiya, kuchli va kuchsiz maydonlar yotishi g’oyasini oldinga surdi.

Maydonlar nazariyasining shakllanishi esa fikrning elektro-maydon ko‘rinishdagi ontologik reallik ekani, ya’ni informatsiya maydoni tashkil etishi haqidagi xulosalarga olib keldi. Bu xulosa, o‘z navbatida, V. Vernadskiy, P. Lerua, Teyyar de-Shardenlar ilmiy izlanishlarida oldinga surilgan NOOSFERA nafaqat epistemologik, ya’ni bir ilmiy tushuncha, balki real ontologik hodisa ekanini, va oxir-oqibatda butun Borlik metafizikada aytilganidek, Olamiy Jon, ya’ni olamshumul ong-kuch, yoki Olamiy ongli iroda tomonidan shakllantirilgani, va boshqarilayotganini bildiradi.

Shu o‘rinda hozirgi davr fani namoyandalari orasida ham hayotning, umuman, Koinot, Olamning tasodifan kelib chiqishi haqidagi ilmiy farazlar ishonchsiz ekani, aksincha, Butun borliqning oqilona asosi mavjudligi haqidagi qarashlar o‘rtaga tashlanayotganini ham alohida ta’kidlab o‘tish joiz. Masalan, Kembrij universitetidan Stiven Meyer[2] ayni shunday g’oyani oldinga surarkan, o‘zi kabi fikr yurituvchi bir qancha olimlarning ishlari va fikrlariga tayanadi.

Bir so‘z bilan aytganda, Aristotelning borliqni shakllantiruvchi nomoddiy g‘oyaviy sabab (shakl-cabab) chindan ham real nomoddiy ongli dinamik kuch ekani haqidagi xulosalarga olib kelmoqda. Bu esa, o‘z navbatida Aristotelning kauzal tahlilidagi uchinchi sabab - harakat-cabab (ya’ni harakatning manbai bo‘lgan sabab) ham ayni shu Olamiy Jon ekanini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, hozirgi davr fani Aristotelning “dastlabki materiyasi” (materiya-sabab) maydonni tashkil etgan eng mayda zarrachalar vakuumda, ya’ni bo‘shliqda, bo‘shliqning quvvati (energiyasi) bilan shakllanishi faktini ham tan oldi. Vaholanki bu bo‘shliq, ya’ni vakuum qadimgi falsafada, tasavvuf va Forobiy ta’limotlarida uqtirilgan sof borliq, SAT, Tayszi, “Hechnima”ning ilmiy tushunchalar vositasidagi ifodalanishi xolos.

Shunga muvofiq maydonlar nazariyasida materiyaning yangi ilmiy ta’rifi shakllandi. Bu yangi ta’rifga ko‘ra materiya maydonning singulyar nuqtalari deb talqin etiladi. “Singulyar”lik tushunchasi zichlashuv, tugun hosil qilish ma’nosini anglatuvchi tushuncha ekanini nazarda tutsak, u holda vakuumda vujudga keladigan eng mayda zarrachalarni sof nomoddiy quvvatning zichlashuv holatida degan xulosaga kelamiz. Ushbu xulosa esa materiya birlamchimi yoki g‘oya (ruh)mi, degan eng uzoq davom etgan falsafiy lagerlar orasidagi ziddiyatni ham bartaraf etadi. Chunki, endi materiyani zichlashgan ong-quvvat (energiya) deb, quvvatni esa siyraklashgan materiya deb ta’riflash mumkin.

Agar biz ushbu faktni) G'arb metafizikasi va fan tushunchalari tilida talqin etsak, u holda ruh vakuumdagi nafis materiyani konkret sifatiga (o'z tabiati va xossalriga) ega bo'lgan muayyan narsa (konkret ayrimlik) qilib strukturlaydigan ongli quvvat (energiya) ekani haqidagi xulosa kelib chiqadi. Boz ustiga, hozirgi davr nomaterialistik yo'nalishdagi fanlarda oldinga surilaboshlagan teleologik konsepsiyalar (ayniqsa neovitalizm, finalizm, emerjeng evolyusiyasi) ayni shunday quvvatning mavjudligini tan olganini va bunda Aristotelning shakllantiruvchi g'oyaviy sabab haqidagi ta'limotiga asoslanib ish ko'rilganini ham ta'kidlash joiz.

Yuqoridagi tahlildan dastlabki materiya ham borliqning eng birinchi yagona nafis ruhiy substansiyasi bo'lgan Nafsi Avval yoki Oq javharning o'zi, faqat uning quyqalashgan, zichlashgan holati ekani tushunarli bo'ladi. Shu o'rinda yangi falsafiy qomusiy lug'at va yangi ilmiy materiallarda materiya tushunchasiga ilgari materializm tomonidan berilgan ta'rifdan katta farq qiladigan ta'rif va qarashlar shakllanganini hisobga olib, bu masalani yana ham oydinlashtirish mumkin. Masalan, 2001 y. Moskvada nashr etilgan falsafiy qomusiy lug'atda materiya fizika fanining eng yangi sohasi bo'lgan "Maydon nazariyasi"da erishilgan bilimlar nuqtai nazaridan kelib chiqib ta'riflangan. Ushbu nazariyaga ko'ra, har qanday energiya (quvvat) bir vaqtning o'zida massa hamdir. Masalan, elektronlar, ularning massasi elektr maydonini tashkil etadi. Shu ma'noda maydon nazariyasi maydon quvvati deb tasavvur etilgan massani elektronning massasi bilan ayniy deb qaraydi. Bunday qarash Eynshteynning massa bilan quvvat ekvivalentligi haqidagi ($E = mc^2$) kashfiyoti munosabati bilan shakllandi.

Ushbu kashfiyot tufayli maydon massasi bilan uning quvvati aslida mohiyatan bir xil, bir-biriga ekvivalent (birini ikkinchisi bilan almashtirish mumkin) bo'lgan yoki biri ikkinchisiga o'tib (aylanib) turadigan hodisalar, degan xulosa kelib chiqadi. Yana ham aniqroq aytsak, materiya maydonning zichlashuv xolati (singulyar tugunlari)[3] va, aksincha, energiya tarqoq holdagi materiya degan xulosa kelib chiqadi. Demak, ushbu kashfiyot ham materializm bilan idealizmning biryoqlamaligini bartaraf etuvchi falsafiy xulosaga olib keladi.

Lekin ortodoksal materializm Eynshteynning ushbu kashfiyotidan kelib chiqib, olam vujudga kelishining tub asosini nomoddiy quvvat tomonidan tashkil etilishi, ya'ni shakllantirilishi haqidagi xulosani oldinga surgan energetizm (Ostvald) oqimi bilan ashaddiy kurash olib bordi. Vaholanki, o'sha davr fani va falsafasi, Shri Aurobindoning shogirdi Satpremning[4] tushuntirishicha, hali Quvvatning Ong ekanini yoki butun borliqda Ongli Quvvat amal qilinishi anglab yetmagan edi. Shuning uchun ham Shri

Aurobindo[5] o'z ontologiyasida ong va quvvatni birlashtirib, uni ong-quvvat (Chit-Shakti) juft tushunchasida ifodalagan edi. Lekin, hozirgi davr fani fikrning elektromagnit maydondan iborat substratga egaligi va "informatsion maydon" mavjudligi, Noosfera, virtual reallik haqidagi xulosalari bilan endilikda bu masalaning ham ezoterizmdagi ma'nolarini tushunishga ancha yaqinlashdi.

Endi Aristotelning "kauzal tahlil"ini tahlil etish orqali erishgan xulosalarimizdan foydalanib, Forobiy ta'limoti va Nasafiy qarashlari misolida tasavvuf ontologiyasida moddiy olamning vujudga kelishi qanday yoritilganini ko'rishga o'tamiz. Bu bizga o'z hayotining ma'nosini bilishga intilgan insonning nima maqsad bilan bu dunyoga kelganini va u bu maqsadni qanday amalga oshirishi mumkin va kerakligini bilishimiz uchun kerak.

Xudoning Xaosdan (tartibsiz dastlabki "xomashyo"dan) Kosmosni (tartiblangan Olmamni) bunyod etishi g'oyasi nafaqat Platon, Aristotel, Forobiy va ontologiyasiga va nafaqat ulardan qadimiyroq pifagorizmga, balki butun qadimgi yunon va boshqa xalqlarning mifologik teogoniyaviy ta'limotlarida va diniy ta'limotlarga ham borib taqaladi. Ularning hammasida Olam ongsiz ravishda, tasodifan, yaratilmagan, balki yaratuvchi Tangri uni muayyan tartibda va muayyan maqsad bilan yaratgan deb ko'rsatiladi.

Platon, Aristotel ta'limotlarining bu boradagi xizmati shundaki, unda shu ongli yaratilish jarayonining manzarasi va ichki mexanizmlari ochib berilgan. Bu avvalo Olamdagi barcha narsalarning o'z proobrazi (g'oyasi, paradigmasi, namunasi, suvrati, nusxasi, modeli) asosida yaratilani batafsil va konkret ochib berilganida ko'rinadi. Aristotelning tushuntirishicha, Demiurgning o'zi, Kosmos joni (Olam joni) ham shakllar shakli (eng oliy paradigmasi). U barcha g'oyalarni (arxetiplarni) va barcha moddiy narsalarni o'ziga qamrab olgan, ularni o'zaro tartiblashtirib bog'lab, bir butun qilib tashkillab, harakatlantirib, yangidan yangi narsalarni vujudga keltirib turgan, ruhiy proobraz va kuchdir, aniqrog'i ong-kuch jufligi yoki, yana ham aniqrog'i, butun olamni yaratgan ongli kuchdir.

Shu o'rinda hozirgi davr fizikasining eng yangi sohasi bo'lgan sinergetikada ham tizimlarning tashkillanishi, kaosdan tartiblashuvning kelib chiqishi, dinamik kaos kabi tushunchalar keng oldinga surilayotganini va ilmiy tahlil etilayotganini ham alohida qayd etish joiz. Lekin sinergetika tashkillanishning ongli asosi mavjudligini inkor etadi, bu konsepsiyada tashkillanish asosan o'z-o'zidan, ko'r-ko'rona sodir bo'ladi. Shunday ekan, sinergetika uchun Olamdagi tartiblanishning ongli maqsadi ham yo'q. Vaholanki, Aristotel o'z ontologiyasida faqat shakl-sabab va materiya-sababni va Olam harakatining manbai bo'lgan harakat-cababni xarakterlash bilan kifoyalanmaydi, balki Uni

yaratishdan maksadni, maqsad-sabab mavjudligini ham ochib beradi. Zero shunday oqilona yaratilgan borliqning Oqilona Oliy bosh maqsadi bo'lmashligi mumkin emas.

Olam vujudga kelishining maqsad-sababi yoritilgan ta'limot teleologiya (borliq mavjudliga va harakatining maqsadi haqidagi ta'limot) deb ham ataladi. Lekin biz Arisotelning bu ta'limotiga batafsil to'xtala olmaymiz. Zero, Aristotel teleologiyasining chuqur talqini katta kitob mavzusini tashkil etadi.

Shuning uchun biz bu yerda bu masalani qisqa, lekin lo'nda yoritib bergan Nasafiy talqinidagi tasavvuf ta'limoti g'oyalari misolida yoritish bilan cheklanamiz. Ayni paytda faylasuflarning ba'zi fikrlariga ham tayanamiz.

Aziziddin Nasafiyning tushuntirishicha, Tangri s.t. javharning shaffof qiyomidan, ushbu qiyomning eng sof qismidan boshlab tobora nomukammalroq (pastroq, quyqaroq) qismlarga tushish tarzida 13 darajadagi ruhlar olamini yaratib bo'lib, ulardan qolgan quyqa qoldiqdan jismlar olamini yaratishga o'tadi. "Tangri subhonahu taolo jismlar olamini ham yaratishni istab, o'z nioghini quyqa qoldiqqa qaratdi va ul quyqa qoldiq qizib qaynay boshladi, - deb yozadi u. Uning mag'zi va qaymog'idan Arshni yaratdi, uning qoldig'i mag'zi va qaymog'idan Kursini (Taxtni) yaratdi, uning qoldig'i mag'zi va qaymog'idan yettinchi osmonni yaratdi, uning qoldig'i mag'zi va qaymog'idan oltinchi osmonni yaratdi, uning qoldig'i mag'zi va qaymog'idan beshinchi osmonni yaratdi, uning qoldig'i mag'zi va qaymog'idan to'rtinchi osmonni yaratdi, uning qoldig'i mag'zi va qaymog'idan uchinchi osmonni yaratdi, uning qoldig'i mag'zi va qaymog'idan ikkinchi osmonni yaratdi, uning qoldig'i mag'zi va qaymog'idan birinchi osmonni yaratdi, uning qoldig'i mag'zi va qaymog'idan olovni yaratdi, uning qoldig'i mag'zi va qaymog'idan havoni yaratdi, uning qoldig'i mag'zi va qaymog'idan suvni yaratdi, uning qoldig'i mag'zi va qaymog'idan tuproqni yaratdi, uning qoldig'i mag'zi va qaymog'idan boshqa jismlarni yaratdi".[6]

Ayni zamonda shayx Nasafiy ruh darajalari jismonan (zero, har bir ruh o'z jismoniy maqomi, ya'ni latif vujudiga ega) qaysi maqomga taalluqli ekanini ham yoritadi. "Ruh darajalari va jism darajalarining har biri o'z-o'zidan maqom topdi,- deydi u. - Ya'ni, Arsh – payg'ambari Xotam ruhining maqomi, Kursi – ululazm payg'ambarlar ruhining maqomi, manzili va xujrasi, yettinchi osmon – mursal payg'ambarlar ruhining maqomi, manzili va xujrasi, oltinchi osmon – anbiyo ruhi maqomi, beshinchi osmon – avliyo ruhi maqomi, to'rtinchi osmon – hakimlar (faylasuflar) ruhi maqomi, uchinchi osmon – zohidlar ruhi maqomi, ikkinchi osmon – taqvo ahli ruhi maqomi, birinchi osmon – imonlilar ruhi maqomi, shu tariqa osmonning to'qqiz darajasi tugal yakun topti. Ammo yana to'rt daraja qoldi, ya'ni qolgan odamlar, hayvonlar, o'simliklar va jirm (jism)larning ruhlari. Ular yuqori lamdan ham, quyi olamdan ham emas. Ammo

jirm (modda) quyilarning quyisidir. Demak, pastga, - tubanlikka tushib boriladi va (shu orqali) o'zini tanish va bilish kerak, o'z Rabbini tanish va bundan yuqoriga qarab taraqqiy etish, o'zining dastlabki (asl) maqomiga yetish demak... ."[6]

Mazkur ko'chirmaning eng oxirgi jumlasida Nasafiy nima uchun ruhning tubanlikka tushib borishini aytadi. Tubanlikka tushishdan maqсад o'zini bilish orqali Rabbini bilishdir.

Shuningdek, Aziziddin Nasafiy Olam yaratilishidan maqсадni boshqa tushunchalar vositasida ham talqin etadi. Uning ikkinchi talqiniga ko'ra, Olamning yaratilishidan maqsad "nur o'zining zuhuriga oshiq" ekanidadir. "...zero ushbu zuhurotda u (nur) o'z jamolini mushohada etadi, o'z sifatleri va ismlarini idrok etadi."[6] (Bu yerda Nasafiy Olam Jonini Nur deb talqin etganini hsda tutish kerak.)

Shri Aurobindo borliq yaralishining maqsadi haqidagi ayni shu fikrni juda yuksak estetik va obrazli ifodalaydi. Uning talqinida Olam vujudga kelishining eng dastlabki bosqichida manba'da (Abadiyatda) yagona mohiyatni tashkil etgan

ong-quvvat birligidan quvvatning ongdan (Mohiyatning g'oyaviy aspektidan) jo'shib-toshib ajralib chiqishi sodir bo'ladi. (Bu holat Nasafiy talqinidagi Javharning qizib qaynashi holatiga muvofiq keladi. Forobiyda esa bunga Ilk Borliqdan fayzlanib toshib chiqish (emanatsiya) jarayonining boshlang'ich bosqichi muvofiq keladi.). Lekin quvvatning asl maqsadi undan (g'oyadan) ajralib ketish emas, balki, aksincha, oshiqqlarning sho'h-quvnoq (quvlashmachoq) o'yinida uni vaqt ichra qayta izlab topmoq, U bilan qayta qovushmoq uchun otilib chiqadi. Xo'sh, butun materiyaning boshlanishining sababi (maqsadi) nimada ekan? Sonu sanoqsiz shakllarga kirib namoyonlikka o'tishdan yagona maqsad cheksiz ravishda takror va takror o'zlikni qayta topmoq quvonchi ichra mavjud bo'lmoqlik uchundir.[4]

Nemis mumtoz faylasufi Gegel ham bu borada ayni shu fikrni, quruqqina mantiqiy ifodalagan edi. Uning talqinda Mutloq g'oya o'z evrilishlari va taraqqiyoti pirovardida o'zligini anglaydi, (Bunday talqin bo'lishi tabiiy edi. Zero, Gegel ratsionalistik idealizm, aniqrog'i, panlogistik idealizm namoyandasi edi. Ya'ni uning uchun borliq mohiyatining hissiy aspekti mavjud emas, faqat g'oyaviy aspekti mavjud).

Demak, olamning Birinchi Sababchisi, Zaruriy Vujudi, Yagona Javhari Mohiyati, Substansiyasi, Ong-Quvvati (Ongli va Zavqli olamiy joni) bo'lgan Yagona (Vahdat), Zaruriy vujud o'zligini (o'z jamolini) behisob ko'p (Kasrat) sifat va ismlarda mushohada etmoq (anglamoq va zavqlanmoq maqsadida o'zining sof, shakllanmagan, yaxlit, bir butun, umumiy, bo'linmas, namoyon

bo'lmagan holatidan quyqalashuv, turli shakllar ichra moddiylashuv, suratlashuv, orazlar kasb etish, turli ayrimliklarga ajralgan, bo'lingan, namoyon bo'lgan holatga o'tadi.

Shu ma'noda Nur(ruh), Nasafiyning tushuntirishicha, "hayot va o'limning mohiyati (haqiqati) va abadiy va o'zgarmas olamning haqiqatidir. Bu olamda mavjud jami' narsalar, olami g'ayb va olami shuhuddagilar uning shakllari va suratlaridir. Jabarut olami mulk va malakut olamining manbai bo'lib, u mulk va malakutga oshiqdir, chunki mulk va malakutda o'z husnu jamolini ko'radi, ismlari va hossalarini idrok etadi.

Xuddi shu kabi malakut (ruhlar, farishtalar) mulkka oshiqdir, negaki mulk malakutning zuhurotidir, malakut esa jabarutning zuhuroti hisoblanadi".[16]

Bu yerda "Oshiq"lik iborasi bejiz tilga olinmaganiga e'tibor berish joiz. Zero ezoterik ontologiyasida, ilgari ham aytganimizday, Muhabbat(Ezgulik, Shavqu Zavq, Quvonch) Sof Vahdat bilan o'zviydir. Masalan, shayx Mansur Halloj ontologiyasida aynan muhabbat olamning dastlabki asosi, Tangri taolo Olamni o'z muhabbatidan yaratgan, deb tushuntirilgan. Ushbu g'oya boshqa metafizik (ezoterik) ta'limotlar, masalan, xristian metafizikasida mazmunida ham Muhabbat fundamental o'rin olgani diqqatga sazovor. Injilda "Xudo - bu Muhabbat" degan ta'rif borligi buning yorqin dalilidir.

Endi yuqoridagi tahlilimizni butunroq umumlashtirsak, avvalo, Musaffo Vahdat bo'lgan Jabarut manba'da o'zining uch asosiy aspekti uzviy birligida mavjud ekani ma'lum bo'ladiki.

Biz yashayotgan bu dunyo shu Musaffo Vahdatning Buyuk Hukmu irodasi va Buyuk Zavqu Shavqidan iborat yaratuvchi kuch-quadratning shakllanuvchi va shu zavqlanuvchi faoliyatining samarasidir. Shakllanish jarayoni javharning namoyon bo'lmaganlik (g'oyiblik), soflik holatidan namoyonlik (moddiylashganlik) xolatiga o'tishi tarzida sodir bo'ladi. Namoyonlikka o'tishdan maqsad esa javharning o'zligini (o'z xusnu jamolini) namoyon etish bilan zavqlanish hamda ayrimliklarda namoyon bo'luvchi o'z ismlari va xossalarini idrok etish va his etishga bo'lgan erkin maylidir.

Yuqoridagi xulosa tasavvuf ta'limoti nima uchun Vahdat deb, falsafiy tilda panteizm (aniqrog'i mistik panteizm) deb atalishini ham tushunishga yordam beradi. Zero, unda butun borliq ana shu Musaffo Vahdatning nonamoyonlik holatidan namoyonlik holatiga o'tishi va buning aksi bo'lgan jarayonlardan iborat, ya'ni u dunyo ham, bu dunyo ham uning (Xudoning) o'zidir.

Bu keyingi fikr ham Shri Aurobindo ta'limotida ochiqroq ifoda etilgan. Unda talqin etilishicha, har ikki olamning o'yini ham, o'ynayotgan ham, o'yin maydoni ham uning (Xudoning) o'zidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri.- Toshkent. .Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti.1993.- B. 7
2. Stephen C. Meer. Ph.D. (History and Philosophy of Science, Cambridge University), Associate Professor of Philosophy at Whitworth College, Senior Research Fellow at the Discovery Institute (Seattle), Director of the Discovery Institute's Center for the Renewal of Science and Culture. //The Creation Hypothesis: Scientific Evidence for an Intelligent Designer (pod red. Dj. P. Morlenda). London .1982. vol. 2. yoki : sayt <http://christianbooks.hotmail.ru/>
3. Философский энциклопедический словарь.-Москва. INFRA. 2001.В. 353.
4. Сатпрем. Шри Ауробиндо, или путешествие сознания.- Бишкек.1992. В.57, 230.
5. Қаранг:Интегральная ёга Шри Ауробиндо.Москва. Никос 1992 В. 10- 11.
6. Aziziddin Nasafiy. Zubdat ul-haqoyiq – haqiqatlar qaymog'i. Najmiddin Komilov tarjiması. -Toshkepn."Kamalak" 1995 - В.. 8.